Hisoblash tafakkuri tushunchasining nazariy asoslari Wing tomonidan keng ilmiy muomalaga kiritilgan. Muallif hisoblash tafakkurini faqat kompyuter fanlariga xos texnik ko'nikma emas, balki har qanday sohada murakkab muammolarni modellashtirish, qismlarga ajratish, abstraksiyalash va algoritmik yechim topishga xizmat qiluvchi universal tafakkur shakli sifatida izohlaydi [1]. Denning esa hisoblash tafakkuri tushunchasini yanada aniqlashtirib, uni faqat dasturlash bilan cheklab qo'yish metodik jihatdan tor yondashuv ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, hisoblash tafakkuri informatikaning fundamental g'oyalari, hisoblash jarayonlari va amaliy muammolarni yechish madaniyati bilan uzviy bog'liqdir [2; 3].

Aho hisoblash tafakkurini hisoblash jarayonlarini shakllantirish va ularni samarali bajarishga yo'naltirilgan fikrlash usuli sifatida talqin qiladi. Uning yondashuvida algoritm, avtomatlashtirish, modellashtirish va hisoblash samaradorligi asosiy tushunchalar sifatida qaraladi [4]. Bu qarashlar dasturlash masalalarini yechishda formal-algoritmik model zarurligini asoslaydi, chunki har qanday dasturiy yechim avvalo masalaning aniq qo'yilishi, kirish va chiqish ma'lumotlarini belgilash, algoritmik bosqichlarni tanlash hamda ularning mantiqiy ketma-ketligini qurishni talab qiladi.

Dasturlash nazariyasida algoritm va ma'lumotlar tuzilmalari o'rtasidagi bog'liqlik Wirth tomonidan "Algorithms + Data Structures = Programs" tamoyili orqali asoslab berilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, dastur

yaratish jarayoni faqat kod yozishdan iborat bo'lmay, balki ma'lumotlarni to'g'ri tashkil etish va ular ustida bajariladigan amallarni algoritmik tartibga solishdan iboratdir [7]. Knuthning fundamental tadqiqotlarida esa algoritmlarni tahlil qilish, ularning murakkabligini baholash va optimal yechimlarni tanlash masalalari chuqur yoritilgan [8]. Cormen, Leiserson, Rivest va Stein tomonidan ishlab chiqilgan algoritmlar nazariyasi ham dasturlash masalalarini formal tahlil qilish, murakkablikni aniqlash va samarali algoritmik strategiyalarni qo'llash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [9].

Hisoblash tafakkurini ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalasi Papert tadqiqotlarida konstruktivistik yondashuv asosida izohlanadi. Papert bolalarning kompyuter bilan ishlash jarayonida faol tajriba, sinov, xatoni tuzatish va ijodiy modellashtirish orqali bilim hosil qilishini ta'kidlaydi [6]. Resnick ham ushbu g'oyani davom ettirib, ta'limda loyiha, qiziqish, hamkorlik va o'yin elementlari orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi [10]. Bu yondashuvlar dasturlashni o'qitishda tayyor kodlarni yodlash emas, balki muammoni mustaqil tahlil qilish va algoritmik yechim yaratish muhimligini asoslaydi.

Grover va Pea hisoblash tafakkurini K-12 ta'lim tizimida o'qitish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilib, uning asosiy komponentlari sifatida abstraksiyalash, dekompozitsiya, algoritmik fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish va avtomatlashtirishni ajratib ko'rsatadilar [5]. Shute, Sun va Asbell-Clarke esa hisoblash tafakkurini murakkab muammolarni yechishga xizmat qiluvchi ko'p komponentli kognitiv ko'nikmalar majmui sifatida talqin etadi. Ularning yondashuvida algoritmik fikrlash, muammoni qismlarga ajratish, umumlashtirish va yechimni baholash asosiy o'rin tutadi [11]. Selby va Woollard hisoblash tafakkurining shakllanayotgan ta'riflarini tahlil qilib, unda mantiqiy fikrlash, algoritmiklik, abstraksiya, dekompozitsiya va umumlashtirish kabi elementlar ustuvor ekanligini ko'rsatadilar [12].

Dasturlash orqali hisoblash tafakkurini rivojlantirish masalasi Lye va Koh tomonidan alohida tadqiq etilgan. Ularning tahliliga ko'ra, dasturlash mashg'ulotlari o'quvchilarda algoritmik fikrlash, muammoni bosqichma-bosqich yechish, xatolarni aniqlash va yechimni optimallashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi [13]. Bu esa dasturlash masalalarini yechish jarayonini formal-algoritmik model asosida tashkil etish zaruratini kuchaytiradi. Bunday model masalani tushunish, talablarni aniqlash, algoritm tuzish, kodlash, testlash va natijani tahlil qilish bosqichlarini tizimli ravishda birlashtiradi.

Mahalliy tadqiqotlarda Husanova oliy ta'lim muassasalari talabalarida dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasini C++ dasturlash tili misolida tahlil qiladi. Muallif dasturlashni o'rgatishda nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashqlar, algoritmik topshiriqlar va mustaqil yechim izlash faoliyatining ahamiyatini ta'kidlaydi [14]. Uning boshqa tadqiqotlarida hisoblash tafakkuridan foydalanish dasturlash tillarini o'rgatish samaradorligini oshiruvchi muhim metodik vosita sifatida baholanadi [15; 16]. Husanova hisoblash tafakkurining psixologik-pedagogik asoslarini yoritib, uni talabada mantiqiy izchillik, tahliliy yondashuv, abstrakt fikrlash va ijodiy muammo yechish ko'nikmalarini shakllantiruvchi omil sifatida ko'rsatadi [17]. Shuningdek, dasturlash tillarini hisoblash tafakkuri yordamida o'qitishda mavjud dolzarb muammolar sifatida talabalar tayyorgarligining turlicha darajasi, algoritmik fikrlashning yetarli shakllanmaganligi va nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzilishlar qayd etiladi [18].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, hisoblash tafakkuri asosida dasturlash masalalarini yechish jarayoni bir nechta o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat murakkab kognitiv-algoritmik faoliyatdir. Ushbu jarayonda muammoni tushunish, uni tarkibiy qismlarga ajratish, abstrakt model yaratish, algoritmik strategiyani tanlash, dasturiy kodga o'tkazish, testlash va natijani baholash izchil ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Shu bois formal-algoritmik model ishlab chiqish dasturlashni o'qitishda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va hisoblash tafakkurini yagona metodik tizimda uyg'unlashtirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, xalqaro maqolalar va dasturlash hamda hisoblash tafakkuriga oid metodik manbalarni tahlil qilish orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, abstraksiyalash, dekompozitsiya va modellashtirish usullari asosida qayta ishlanib, dasturlash masalalarini yechish jarayonining formal-algoritmik modeli hamda uning tarkibiy bosqichlari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hisoblash tafakkuri zamonaviy informatika fanida faqat dasturlashni o'rganish vositasi sifatida emas, balki hisoblash jarayonlarini tashkil etishning umumiy metodologiyasi sifatida qaraladi. Uning nazariy mohiyati shundan iboratki, har qanday murakkab masala avvalo o'zining muhim xususiyatlari ajratilgan abstrakt modelga keltiriladi, keyinchalik ushbu model asosida algoritmik jarayon shakllantiriladi. Bunda asosiy e'tibor ma'lum bir dasturlash tiliga emas, balki masalani hisoblash nuqtayi nazaridan ifodalash va samarali yechimga olib



keluvchi amallar ketma-ketligini aniqlashga qaratiladi.

Hisoblash tafakkurining strukturaviy tahlili shuni ko'rsatadiki, u dasturlash jarayonining barcha bosqichlari bilan bevosita bog'langan yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi. Muammoni dekompozitsiyalash jarayonida murakkab obyekt yoki jarayon o'zaro bog'langan kichik elementlarga ajratiladi. Mazkur yondashuv algoritmlarni loyihalash nazariyasida ham muhim tamoyil hisoblanadi, chunki murakkab hisoblash masalalarini mustaqil boshqariladigan qismlarga ajratish ularning yechimini soddalashtirish imkonini beradi.

Abstraksiyalash jarayoni esa real obyektning barcha xususiyatlarini emas, balki hisoblash jarayoni uchun muhim bo'lgan parametrlarini ajratib olishga asoslanadi. Informatikada har qanday dasturiy tizim ma'lum bir abstrakt modelga tayanadi. Masalan, ma'lumotlar tuzilmalari, algoritmlar va dasturiy arxitekturalarning barchasi real jarayonlarning formal ifodasidir. Shuning uchun abstraksiyalash dasturlash jarayonining boshlang'ich va eng muhim bosqichlaridan biri sifatida qaraladi.

Ushbu tadqiqotda dasturlash masalalarini yechish jarayoni hisoblash tafakkurining asosiy komponentlari va algoritmik jarayonlarning o'zaro bog'langan tizimi sifatida modellashtiriladi. Taklif qilinayotgan yondashuvga ko'ra, dasturlash jarayoni oddiy ketma-ket amallar yig'indisi emas, balki turli darajadagi abstraksiyalar orasidagi transformatsiya jarayonidir.

Mazkur jarayonni formal ifodalash uchun dasturlash masalasini quyidagi umumiy model orqali tavsiflash mumkin:

$$P=\{X, Y, M, A, D, R\}$$

bu yerda:

X — boshlang'ich ma'lumotlar to'plami;

Y — kutilayotgan natijalar sohasi;

M — masalaning formal modeli;

A — algoritmik yechim;

D — dasturiy realizatsiya;

R — olingan natijalarni baholash jarayoni.

Ushbu modelda asosiy e'tibor $X \rightarrow M \rightarrow A \rightarrow D \rightarrow R$ transformatsion zanjiriga qaratiladi. Mazkur ketma-ketlik dasturlash jarayonining ichki mantiqiy strukturasi aks ettiradi. Dastlabki ma'lumotlar to'plamidan boshlab formal model hosil qilinadi, keyinchalik ushbu model asosida algoritm ishlab chiqiladi va algoritm dasturiy vosita yordamida amalga oshiriladi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalarning aniqligi va samaradorligi baholanadi.

Taklif qilinayotgan modelning asosiy ilmiy jihati shundaki, unda hisoblash tafakkuri va dasturlash jarayoni alohida hodisalar sifatida emas, balki yagona hisoblash transformatsiyasi sifatida qaraladi. Bunda inson tafakkurida yuzaga kelgan muammo kompyuter bajarishi mumkin bo'lgan formal tizimga bosqichma-bosqich o'tkaziladi. Mazkur yondashuv informatikaning nazariy asoslarida muhim o'rin egallaydigan formal modellashtirish tamoyiliga asoslanadi. Chunki hisoblash nazariyasida har qanday masalaning kompyuter yordamida yechilishi uchun avvalo uning formal tavsifi mavjud bo'lishi zarur. Formal model mavjud bo'lmagan holatda algoritm yaratish jarayoni subyektiv xarakterga ega bo'lib qoladi va ishlab chiqilgan yechimning universalligi hamda samaradorligini baholash qiyinlashadi. Shu sababli hisoblash tafakkuri asosida dasturlash jarayonlarini modellashtirish nafaqat dasturlashni o'rgatish metodikasi, balki algoritmlar nazariyasi va hisoblash jarayonlarini tashkil etishning fundamental masalasi sifatida qaralishi lozim.

Yuqoridagi nazariy tahlil asosida dasturlash masalalarini yechish jarayonining konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda hisoblash tafakkuri inson tomonidan yaratilgan muammoni kompyuter bajaradigan algoritmik jarayonga aylantiruvchi oraliq mexanizm sifatida qaraladi. Model quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

Real muammo \rightarrow Abstrakt tasvir \rightarrow Formal model \rightarrow Algoritmik model \rightarrow Dasturiy model \rightarrow Hisoblash natijasi

Ushbu ketma-ketlikda har bir bosqich oldingi bosqich natijasining transformatsiyasi hisoblanadi. Real muammo dastlab inson tafakkuri orqali tahlil qilinadi va uning muhim jihatlari ajratib olinadi. Keyinchalik hosil qilingan abstrakt tasvir matematik yoki mantiqiy formal modelga aylantiriladi. Formal model asosida algoritm ishlab chiqiladi va ushbu algoritm dasturiy vosita orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda hisoblash tafakkuri dasturlash faoliyatining boshlang'ich va boshqaruvchi mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Chunki algoritm sifati nafaqat dasturlash tilini bilishga, balki dastlabki muammoni qanchalik to'g'ri modellashtirishga bog'liq.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, dasturlash masalalarini samarali yechish jarayoni inson tafakkurida shakllangan muammoni kompyuter bajarishi mumkin bo'lgan formal hisoblash tizimiga o'tkazish bilan bog'liq murakkab transformatsion jarayondir. Ushbu jarayonning samaradorligi dasturchining ma'lum bir dasturlash tilini bilish darajasi bilan emas, balki muammoni to'g'ri modellashtirish, hisoblash strukturasi aniqlash va optimal algoritmik yechim yaratish qobiliyati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijasida hisoblash tafakkuri komponentlarini dasturlash jarayonining formal bosqichlari bilan integratsiyalash asosida yangi konseptual model taklif qilindi. Mazkur modelda hisoblash tafakkuri dasturiy mahsulot yaratishning alohida bosqichi sifatida emas, balki barcha bosqichlarni boshqaruvchi metodologik mexanizm sifatida qaraladi. Taklif

etilayotgan modelning asosiy g'oyasi shundan iboratki, dasturlash masalasini yechish jarayoni beshta o'zaro bog'langan transformatsion holat orqali amalga oshadi. Birinchi holatda real muammo haqidagi dastlabki bilimlar shakllanadi. Ikkinchi holatda ushbu bilimlar abstrakt modelga o'tkaziladi. Uchinchi holatda model asosida algoritmik tavsif hosil qilinadi. To'rtinchi holatda algoritm dasturiy vosita yordamida realizatsiya qilinadi. Beshinchi holatda esa yaratilgan yechimning hisoblash samaradorligi baholanadi.

Ushbu jarayonni quyidagi formal ko'rinishda ifodalash mumkin:

$CTP=(S, A_b, M, Alg, Prog, E)$

bu yerda:

CTP — Computational Thinking asosidagi dasturlash jarayoni modeli;

S (Situation) — real muammoli vaziyat;

A_b (Abstraction) — muammoning abstrakt ifodasi;

M (Model) — formal model;


Alg (Algorithm) — algoritmik yechim;

Prog (Programming) — dasturiy realizatsiya;

E (Evaluation) — natijalarni baholash jarayoni.

Mazkur modeldagi elementlar o'zaro funksional bog'langan bo'lib, har bir keyingi bosqich avvalgi bosqichning qayta ishlangan va takomillashtirilgan ko'rinishini hosil qiladi. Shu sababli dasturlash jarayoni oddiy "kod yozish" faoliyati emas, balki ketma-ket abstraksiyalarni shakllantirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Modelning muhim jihati shundaki, unda hisoblash tafakkurining asosiy mexanizmlari dasturlash jarayonining tegishli bosqichlariga moslashtirilgan. Jumladan, dekompozitsiya murakkab masalani tarkibiy qismlarga ajratish orqali model qurish jarayonini ta'minlaydi, abstraksiyalash esa ortiqcha ma'lumotlarni chetlashtirib, masalaning hisoblash uchun zarur bo'lgan parametrlarini aniqlash imkonini beradi. Naqshlarni aniqlash avval yechilgan masalalar va mavjud algoritmik strukturalardan foydalanishga xizmat qiladi. Algoritmish jarayoni esa formal modelni bajariladigan amallar ketma-ketligiga aylantiradi.

Taklif qilinayotgan modelning strukturaviy ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi (1-rasm):



1-rasm. Hisoblash tafakkuri asosida muammoni yechish jarayoni¹

1 Manba: muallif ishlanmasi.



Mazkur model an'anaviy dasturlash yondashuvlaridan farqli ravishda dastur yaratish jarayonining ichki intellektual mexanizmlarini ham hisobga oladi. An'anaviy yondashuvlarda asosiy e'tibor algoritmi kod shakliga o'tkazishga qaratilgan bo'lsa, ushbu modelda kod yaratish jarayonidan oldingi modellashtirish bosqichlari markaziy o'ringa qo'yiladi. Nazariy jihatdan ushbu yondashuv hisoblash jarayonlarini formal tavsiflash imkonini beradi. Chunki har qanday algoritmik tizimning samaradorligi uning asosida yotuvchi modelning aniqligi va to'liqligiga bog'liq. Agar dastlabki model noto'g'ri shakllantirilsa, keyingi algoritmik va dasturiy bosqichlarda optimal natijaga erishish qiyinlashadi. Shu sababli hisoblash tafakkurini dasturlash jarayonining boshlang'ich modeli sifatida qarash informatikaning nazariy asoslari nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Dasturlash masalalarini yechish jarayonining samaradorligini baholashda asosiy mezonlardan biri masalaning formal modeldan algoritimga o'tish darajasidir. Ushbu o'tish jarayonini funksiya ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$F:M \rightarrow Alg$$

bu yerda **F** — formal modelni algoritmik yechimga transformatsiya qiluvchi funksiya, **M** — masalaning formal modeli, **Alg** — hosil qilingan algoritmdir.

Agar formal model yetarlicha aniq va to'liq shakllantirilgan bo'lsa, algoritmik yechimning to'g'riligi va samaradorligi oshadi. Shuning uchun hisoblash tafakkurining asosiy vazifasi aynan ushbu transformatsiya jarayonining sifatini oshirishdan iborat. Bundan kelib chiqib, dasturlash jarayonining umumiy samaradorligini quyidagi bog'lanish orqali ifodalash mumkin:

$$Q=f(M,A,O)$$

bu yerda:

Q — dasturiy yechim sifati;

M — modelning aniqligi;

A — algoritmnining samaradorligi;

O — optimallashtirish darajasi.

Ushbu ifoda dasturiy yechim sifati faqat dastur kodiga emas, balki undan oldingi nazariy va algoritmik jarayonlarga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy yondashuv shakllantirildi: hisoblash tafakkuri dasturlashni o'qitish vositasi sifatida emas, balki dasturlash masalalarini yechish jarayonining formal boshqaruv modeli sifatida talqin qilindi. Ishlab chiqilgan model dasturlash jarayonidagi inson tafakkuri va kompyuter hisoblash mexanizmlari o'rtasidagi bog'lanishni ifodalash imkonini beradi. Mazkur yondashuv orqali real muammoning dasturiy yechimga aylanish jarayoni yagona tizim sifatida modellashtiriladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dasturlash masalalarini yechish jarayonini faqat texnik kod yozish faoliyati sifatida qarash yetarli emas, chunki bu jarayonning asosida murakkab kognitiv va formal transformatsiyalar yotadi. Real muammo avval inson tafakkurida abstrakt ko'rinishga keltiriladi, so'ngra ushbu abstraksiya formal modelga aylantiriladi va undan algoritmik yechim shakllantiriladi. Shu jihatdan dasturlash jarayoni ketma-ket bajariladigan amallar yig'indisi emas, balki turli darajadagi formal tasvirlar o'rtasidagi uzluksiz transformatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Hisoblash tafakkuri konsepsiyasi ushbu transformatsion jarayonni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki u muammoni qismlarga ajratish, muhim xususiyatlarni ajratib olish hamda ularni algoritmik ifodaga o'tkazish mexanizmlarini yagona tizim sifatida birlashtiradi. Bu yondashuv dasturlashni o'rganishda an'anaviy "kod yozish" paradigmasidan "model yaratish va algoritmik fikrlash" paradigmasiga o'tishni taqozo etadi. Taklif etilgan formal-algoritmik modelning muhim jihati shundaki, u dasturlash jarayonining ichki strukturaviy bosqichlarini aniq ajratib beradi va ularni yagona hisoblash transformatsiyasi sifatida bog'laydi. Bu esa algoritm sifatini faqat uning sintaktik to'g'riligiga emas, balki uning asosidagi formal modelning aniqligi va to'liqligiga bog'liqligini ko'rsatadi. Natijada dasturlash jarayonining samaradorligi dasturchining muammoni qanday kod yozishi bilan emas, balki muammoni qanday modellashtirishi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hisoblash tafakkuri komponentlari dasturlash jarayonining turli bosqichlarida turlicha funksional rol o'ynaydi. Abstraksiyalash muammoni soddalashtirish va ortiqcha ma'lumotlardan voz kechish imkonini bersa, dekompozitsiya murakkab tizimni boshqariladigan qismlarga ajratish orqali algoritmik yechimni shakllantirishni yengillashtiradi. Naqshlarni aniqlash esa avvalgi yechimlardan foydalanish va umumlashtirilgan algoritmik strukturalarni hosil qilish imkonini beradi. Shu tariqa hisoblash tafakkuri dasturlash jarayonining barcha bosqichlarini birlashtiruvchi nazariy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida hisoblash tafakkuri asosida dasturlash masalalarini yechish jarayonining

formal-algoritmik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model dasturlash jarayonini real muammodan boshlab uning formal ifodasi, algoritmik yechimi, dasturiy realizatsiyasi va natijani baholashgacha bo'lgan ketma-ket transformatsiyalar tizimi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Hisoblash tafakkuri dasturlash jarayonida yordamchi kognitiv vosita emas, balki uning nazariy asosini tashkil etuvchi fundamental mexanizm hisoblanadi.

Chunki har qanday algoritmik yechimning sifati avvalo uning asosida yotgan formal modelning to'g'riligiga bog'liq bo'lib, ushbu modelni shakllantirishda hisoblash tafakkurining komponentlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Taklif etilgan yondashuv dasturlashni o'qitish va algoritmik fikrlashni rivojlantirish jarayonida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u informatikaning nazariy asoslari doirasida hisoblash jarayonlarini modellashtirish, algoritmlarni tahlil qilish va dasturiy tizimlarni loyihalash muammolarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Wing, J. M. (2006). Computational thinking. *Communications of the ACM*, 49(3), 33–35. <https://doi.org/10.1145/1118178.1118215>
2. Denning, P. J. (2009). The profession of IT: Beyond computational thinking. *Communications of the ACM*, 52(6), 28–30. <https://doi.org/10.1145/1516046.1516054>
3. Denning, P. J. (2017). Remaining trouble spots with computational thinking. *Communications of the ACM*, 60(6), 33–39. <https://doi.org/10.1145/2998438>
4. Aho, A. V. (2012). Computation and computational thinking. *The Computer Journal*, 55(7), 832–835. <https://doi.org/10.1093/comjnl/bxs074>
5. Grover, S., & Pea, R. (2013). Computational thinking in K–12: A review of the state of the field. *Educational Researcher*, 42(1), 38–43. <https://doi.org/10.3102/0013189X12463051>
6. Papert, S. (1980). *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books.
7. Wirth, N. (1976). *Algorithms + data structures = programs*. Prentice-Hall.
8. Knuth, D. E. (1997). *The Art of Computer Programming* (Vol. 1–3). Addison-Wesley.
9. Cormen, T. H., Leiserson, C. E., Rivest, R. L., & Stein, C. (2009). *Introduction to Algorithms* (3rd ed.). MIT Press.
10. Resnick, M. (2017). *Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play*. MIT Press.
11. Shute, V. J., Sun, C., & Asbell-Clarke, J. (2017). Demystifying computational thinking. *Educational Research Review*, 22, 142–158. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2017.09.003>
12. Selby, C. C., & Woollard, J. (2013). *Computational thinking: The developing definition*. University of Southampton Report.
13. Lye, S. Y., & Koh, J. H. L. (2014). Review on teaching and learning of computational thinking through programming. *Computers in Human Behavior*, 41, 51–61. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2014.09.012>
14. Husanova S. H. Oliy ta'lim muassasasi talabalarining dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish (C++ dasturlash tili misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 1360-1366
15. Husanova S. H. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga dasturlash tillarini o'rgatishda hisoblash tafakkuri (computational thinking)dan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish //Electronic education. – 2023. – №. 4. – С. 126-135.
16. Husanova S. H. Improving educational performance by teaching computational thinking to higher education students //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 279-281.
17. Husanova S. H. Psychological And Pedagogical Foundations For The Formation Of Computative Thinking // Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments. – 2024. – T. 2. – №. 10. – С. 37-62.
18. Husanova S. H. DASTURLASH TILLARINI HISOBLASH TAFAKKURI YORDAMIDA O'QITISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR// avionika jihozlari ekspluatatsiyasida uchraydigan muammolar va yechimlar. Rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy - amaliy anjumi– 2024. – С. 149-151.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100